

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60610500 – Sun'iy intellekt
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60610500 – Sun'iy intellekt

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: YUSUPOV JALOLIDDIN RASULJON O'G'LI

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti

fan doktori (DSc), dotsent



A'zo: HENRICUS VERHAGEN

Stockholm University

falsafa doktori (PhD), professor

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260052
Xulosa raqami	713
Xulosa sanasi	17.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Xorazm viloyati, Urganch shahri, Gurlan ko'chasi, 1A-uy. Guvohnoma: MAS № 0000250, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Sun'iy intellekt
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60610500
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000250, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60610500 – Sun'iy intellekt
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60610500 – Artificial Intelligence
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60610500 – Искусственный интеллект
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Axborot texnologiyalari mutaxassisi, informatika fani o'qituvchisi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	200 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Xorazm viloyati, Urganch shahri, Gurlan ko'chasi, 1A-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob doirasida taqdim etilgan tashkiliy-huquqiy hujjatlar, boshqaruv tizimi hamda ichki sifatni ta'minlash mexanizmlariga oid materiallar kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida xalqaro ekspert tomonidan bildirilgan tavsiya va sharhlar asosida "Sun'iy intellekt" ta'lim dasturiga oid yetishmayotgan hujjatlar qisqa muddatda to'liq tayyorlanib, ekspertiza uchun taqdim etilgani aniqlandi. Mazkur holat muassasaning ekspert tavsiyalariga ochiq yondashishi, aniqlangan kamchiliklarni tezkor bartaraf etishi hamda ichki sifatni ta'minlash tizimining amalda ishlashini ko'rsatadi. Shuningdek, ta'lim dasturini amalga oshirish uchun mas'ul tarkibiy tuzilma faoliyati yo'lga qo'yilgani, istiqbolli rivojlantirish rejasi hamda ichki sifatni monitoring qilish mexanizmlari shakllantirilgani qayd etildi. Taqdim etilgan dalillar ta'lim dasturini boshqarish jarayonida doimiy takomillashtirish tamoyili qo'llanilayotganini va boshqaruv tizimining belgilangan talablar asosida tashkil etilganini tasdiqlaydi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob doirasida "Sun'iy intellekt" ta'lim dasturining mazmuni, o'quv rejalari, fan dasturlari, malaka talablari hamda kutilayotgan o'quv natijalariga oid hujjatlar kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida ta'lim dasturi Davlat ta'lim standartlari va kompetensiyaviy yondashuv tamoyillari asosida ishlab chiqilgani, uning maqsadlari, o'quv natijalari hamda kasbiy kompetensiyalari o'zaro uzviy bog'langan holda shakllantirilgani aniqlandi. Shu bilan birga, dastur mazmunida asosiy e'tibor pedagogika fanlariga qaratilgani, sun'iy intellektga oid fanlar esa asosan informatika yo'nalishi nuqtai nazaridan yoritilgani qayd etildi. Ta'lim dasturining pedagogik yo'nalishini hisobga olib, sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, adaptiv o'qitish tizimlari, ta'lim analitikasi va raqamli pedagogika

kabi yo'nalishlarni yanada kengroq qamrab olish maqsadga muvofiq deb topildi. Ta'lim dasturi yakunida bitiruvchiga "Axborot texnologiyalari mutaxassisi, informatika fani o'qituvchisi" kvalifikatsiyasi berilishi nazarda tutilgan. Mazkur yondashuv ta'lim dasturining asosiy maqsadlariga mos bo'lsa-da, sun'iy intellektning pedagogik qo'llanilishiga oid komponentlarni kuchaytirish dastur sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob doirasida "Sun'iy intellekt" ta'lim dasturining o'quv jarayonini tashkil etish, o'quv rejalari va fan dasturlari, shuningdek ta'lim natijalarini baholash tizimiga oid hujjatlar kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida ishchi o'quv rejalari va fan dasturlari amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda Davlat ta'lim standartlari talablari asosida ishlab chiqilgani, ularning ta'lim dasturining maqsadlari va kutilayotgan o'quv natijalari bilan uzviy bog'langanligi aniqlandi. O'quv jarayonini tashkil etishda nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratilgani qayd etildi. Xususan, sun'iy intellekt yo'nalishi uchun amaliy dasturlash, ma'lumotlarni tahlil qilish, mashinaviy o'qitish modellarini yaratish va ularni bosqichma-bosqich murakkablashtirib borishga asoslangan topshiriqlar tizimi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning muhim omili sifatida baholandi. Shuningdek, baholash mezonlarining shaffofligi va ta'lim natijalarini xolis baholash mexanizmlarining joriy etilgani ta'lim jarayonining sifatini ta'minlashga xizmat qilishi aniqlandi. O'quv jarayonining amaldagi tashkil etilishi ta'lim dasturida belgilangan natijalarga erishish uchun zarur metodik asoslarni ta'minlaydi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob doirasida "Sun'iy intellekt" ta'lim dasturi bo'yicha talabalarni qabul qilish, talabalar harakatini boshqarish hamda ularni qo'llab-quvvatlash tizimiga oid hujjatlar kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida qabul jarayoni amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida tashkil etilgani, qabul mezonlari va talablari abituriyentlar uchun ochiq hamda shaffof tarzda e'lon qilinishi ta'minlangani aniqlandi. Qabul parametrlari ta'lim tashkilotining moddiy-texnik bazasi, professor-o'qituvchilar salohiyati va mavjud infratuzilma imkoniyatlariga mutanosib ravishda belgilanganligi qayd etildi. Shuningdek, talabalar harakati bilan bog'liq jarayonlar belgilangan tartibda amalga oshirilishi, akademik maslahat, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va boshqa xizmatlarni qamrab oluvchi mexanizmlar joriy etilgani aniqlandi. Taqdim etilgan dalillar talabalar faoliyatini tashkil etish tizimi

ta'lim dasturining barqaror amalga oshirilishini ta'minlashga xizmat qilishini tasdiqlaydi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob doirasida "Sun'iy intellekt" ta'lim dasturining inson resurslari bilan ta'minlanganligi, professor-o'qituvchilar tarkibi, boshqaruv va o'quv-yordamchi xodimlar faoliyatiga oid hujjatlar kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur pedagog kadrlar, boshqaruv hamda o'quv-yordamchi xodimlar bilan ta'minlanganlik darajasi belgilangan talablar darajasida ekani aniqlandi. Professor-o'qituvchilarning ma'lumoti, mutaxassisligi va kasbiy malakasi ta'lim dasturining mazmuni hamda kutilayotgan o'quv natijalariga mos kelishi qayd etildi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt sohasining jadal rivojlanayotgan yo'nalish ekanligi inobatga olinib, mashinali o'qitish, chuqur o'qitish va ma'lumotlar tahlili bo'yicha ixtisoslashgan mutaxassislarni ta'lim jarayoniga izchil jalb etish hamda professor-o'qituvchilarning ushbu yo'nalishlarda malakasini muntazam oshirib borish ta'lim dasturining dolzarbligi va sifatini yanada mustahkamlashga xizmat qilishi ta'kidlandi. Mavjud kadrlar salohiyati ta'lim dasturining samarali amalga oshirilishi uchun yetarli imkoniyatlarni ta'minlaydi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob doirasida "Sun'iy intellekt" ta'lim dasturining moddiy-texnik ta'minoti, laboratoriya bazasi, o'quv infratuzilmasi hamda texnik vositalarga oid hujjatlar kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur asbob-uskunalar, kompyuter texnikasi, laboratoriya jihozlari va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishga mo'ljallangan texnik vositalar bilan ta'minlanganlik belgilangan talablar darajasida ekani aniqlandi. O'quv auditoriyalari va laboratoriya xonalari ta'lim jarayonini sifatli tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlarga ega bo'lib, amaliy mashg'ulotlarni samarali o'tkazish imkonini beradi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt sohasining zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini hisobga olib, yuqori unumdor hisoblash resurslari, jumladan grafik protsessorlar (GPU) bazasini bosqichma-bosqich kengaytirish, murakkab sun'iy intellekt modellarini yaratish va sinovdan o'tkazish imkoniyatlarini yanada rivojlantirish maqsadga muvofiq deb topildi. Mavjud moddiy-texnik baza ta'lim dasturida nazarda tutilgan nazariy va amaliy tayyorgarlikni to'liq ta'minlash imkonini beradi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Sun'iy intellekt fanlarini pedagogik qo'llanishga yo'naltirilgan holda kuchaytirish zarur.
- ✓ Hisoblash quvvati va grafik protsessorlar bazasini kengaytirish tavsiya etiladi.
- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish maqsadga muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Sun'iy intellekt fanlarini bitiruvchilarning pedagogik faoliyatiga yo'naltirib kuchaytirish.
- ✓ Hisoblash quvvati va grafik protsessorlar bazasini kengaytirish.
- ✓ Mashinali o'qitish bo'yicha ixtisoslashgan mutaxassislarni jalb etish.
- ✓ Dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni yangilash.


8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, 60610500 – "Sun'iy intellekt" bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv tizimi, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida xalqaro ekspert tomonidan bildirilgan tavsiyalar va mulohazalar asosida yetishmayotgan hujjatlar to'liq rasmiylashtirilib, ta'lim dasturini boshqarish va ichki sifatni ta'minlash tizimi takomillashtirilgani aniqlandi. Ta'lim dasturi Davlat ta'lim standartlari va kompetensiyaviy yondashuv tamoyillari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, pedagogik yo'nalish xususiyatidan kelib chiqib sun'iy intellekt komponentlari informatika fanlari bilan uyg'unlashtirilgan. O'quv rejalari va fan dasturlari ta'lim dasturining maqsadlari hamda kutilayotgan o'quv natijalari bilan uzviy bog'langan, o'quv jarayonida amaliy dasturlash, ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt modellarini yaratishga yo'naltirilgan topshiriqlar izchil tashkil etilgan. Talabalarni qabul qilish va qo'llab-quvvatlash tizimi amaldagi me'yoriy talablar asosida yo'lga qo'yilgan, qabul parametrlari ta'lim tashkilotining mavjud resurslari bilan mutanosib ravishda belgilangan. Professor-o'qituvchilar tarkibi ta'lim dasturini

amalga oshirish uchun yetarli salohiyatga ega bo'lib, ularning malakasi va mutaxassisligi dastur talablariga mos keladi. Moddiy-texnik baza zamonaviy laboratoriyalar, kompyuter texnikasi va amaliy mashg'ulotlar uchun zarur jihozlar bilan ta'minlangan bo'lib, sun'iy intellekt yo'nalishida o'quv jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi. Aniqlangan tavsiyalar, jumladan sun'iy intellektning pedagogik qo'llanilishiga oid fanlarni kengaytirish, mashinali o'qitish bo'yicha mutaxassislarni jalb etish hamda yuqori unumdor hisoblash resurslarini bosqichma-bosqich rivojlantirish ta'lim dasturini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi va uning amalga oshirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Umuman olganda, 60610500 – "Sun'iy intellekt" bakalavriat ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga javob beradi hamda MUVOFIQ deb baholanadi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

